


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

B.Sh.Shermuhammadov, Q.B.Qurbanova	
Oliy ta'limda talabalarни ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	5
T.Эгамбердиева, С.Юлдашев	
Исторические корни народных игр	11
A.A.Turaханов	
Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных	
руководителей к негативным идеям и социальным угрозам	17
N.R.Gafurova	
Advanced mnemonic techniques for students in language courses	23
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-	
pedagogik asoslari.....	30
N.R.Gafurova	
Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in	
reading and writing at Fergana State University.....	36
M.M.Yuldashev	
O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi	42
Sh.A.Ibragimova	
Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni	
rivojlanish genezisi.....	46
N.R.Gafurova	
Teaching english through film: a contextual approach to language learning.....	52
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni	
rivojlantirish bosqichlari.....	56
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	59
N.T.Mirzamaxmudova	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini	
rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	62
N.R.Gafurova	
The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in	
higher education institutions.....	66
D.A.Maxmudova	
The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools.....	70
D.O.Gulamova	
Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati	76
N.R.Gafurova	
The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression.....	82
B.M.Artikova	
Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher	
education institutions (based on the example of the building and construction specialty)	89
M.N.Haytboyeva	
"Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida	
o'qitish va o'rganishni rivojlantirish"	93
N.U.Jamalova	
Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi	97
Sh.R.Temirov	
Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika	
mashg'ulotlarining samaradorligi.....	101
N.R.Gafurova	
The impact of online learning platforms on school education	108



**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA
KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI**

**ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**STAGES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS
BASED ON A CREATIVE-PEDAGOGICAL APPROACH**

Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich 
Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning texnologik tizimi, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi o'r ganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования профессиональной компетентности будущих педагогов на основе творческо-педагогического подхода, технологическая система формирования профессиональной компетентности будущих педагогов на основе творческо-педагогического подхода, эффективность формирования профессиональной компетентности в будущем педагогов на основе творческо-педагогического подхода. Также были проанализированы компоненты формирования профессиональной компетентности будущих педагогов на основе творческо-педагогического подхода.

Abstract

The article examines the theoretical and methodological foundations of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach, the technological system of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach, and the effectiveness of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach. Also, components of professional competence development in future pedagogues based on the creative-pedagogical approach were analyzed.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, kreativ-pedagogik, kompetentlilik, ta'lim-tarbiya, reproduktiv, retrospektiv, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kreativ-pedagogik yondashuv, texnologik tizim, nazariy-metodologik asos.

Ключевые слова: будущий педагог, творческо-педагогический, компетентность, образовательная, репродуктивная, ретроспектива, компетентность, профессиональная компетентность, творческо-педагогический подход, технологическая система, теоретико-методологическая основа.

Key words: future pedagogue, creative-pedagogical, competence, educational, reproductive, retrospective, competence, professional competence, creative-pedagogical approach, technological system, theoretical-methodological basis.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish ularni tayyorlashdagi eng qiyin vazifalardan biridir. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash davrida pedagogik faoliyatga moslashish muammosi tobora murakkablashib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi ixtiyoriy va hissiy fazilatlar, intellektual salohiyat, amaliy ko'nikmalar, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatları va shaxsning ijtimoiy-madaniy faoliyati darajasini aks ettiruvchi individual fazilatlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanganadi. Rivojlangan davlatlarda shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malakada mutaxassisning metodik kompetentligi, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi esa-bilim, ko'nikma va malakalar darasasi bilan o'lchanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kasbiy faoliyatga tayyorlash, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari Wilson, J.Kim, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, N.Shodiyev, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, V.Slastenin, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, Y.Shiyanov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ularning pedagogik faoliyatdag'i faolligini oshirish, kasbiy faolligi uchun to'g'ri motivatsiya'ni bera olish talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlanganligini namoyon etuvchi o'ziga xos kasbiy xususiyatlar va qobiliyatlar ham mavjud bo'lib, ularga:

amaliy intellekt – mantiqiy va tanqidiy fikrash, amaliy masalalarni hal etishda bilim va tajribani tez va effektiv qo'llay bilish. Pedagogik faoliyoti effektivligi ko'p jihatdan ma'lumotlar bilan ishlay olish va pedagogik mahorat va muomalaga bog'liq bo'ladi.

sotsial intellekt – atrofdagilarning ichki kechinmalarini to'g'ri tushunish va tahlil qilish.

adekvat o'z-o'zini baholash. Bu pedagogning o'z-o'zini kuzatish, xatti-harakatlarini tanqidiy, tahliliy, nazorat o'chovida baholash qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompitensiya'ni rivojlantirishning umumiyligi maqsadi pedagoglarning muayyan sohadagi kasbiy pedagogik faoliyatida umumiyligi ilmiy, kasbiy pedagogik va maxsus kompitensiyalari rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik kompetentlilikning bir nechta rivojlanish bosqichlari mavjud:

1- bosqich. Bo'lajak o'qituvchilarning kelgusidagi pedagogik kasbiy faoliyati uchun tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun xos bo'lgan tayanch kompetensiyalar quyidagilar:

1) konseptual – kasbiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini tushunish, pedagogika sohasiga oid umumiyligi, falsafiy va metodologik yondashuvlarni egallash;

2) intrumental – pedagogik metodlar va malakalarga ega bo'lish;

3) axloqiy qadriyatli – pedagoglik ishining qabul qilingan me'yordi, ma'naviy qadriyatlari, uning missionerlik va insonparvar yo'nalganligi, pedagogning ijtimoiy mas'uliyati, jamiyatning taraqqiyoti uchun pedagogik faoliyatning ahamiyati, bolalikni va alohida bir insonning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

4) integrativ – nazariya va amaliyotni, ularning axloqiy-metodologik tarkibini pedagogik muammolarni hal etishda uyg'unlashtira olish qobiliyati;

5) kontekstual – pedagogik faoliyat amalga oshiriladigan ijtimoiy, madaniy, tashkiliy muhitni tushunish, pedagogik jarayonda individuallikni namoyon etishning o'ziga xosligi;

6) adaptatsiyali – pedagogik jarayonlarning ziddiyatlarini, ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlar xarakterini, voqe'a-hodisalar va odamlar xulq-atvorining o'zgaruvchanligini oldindan ko'ra olish, bularning hammasiga tayyor bo'lish qobiliyati;

7) kommunikativ – zamonaviy axborot oqimlaridan, shaxslararo kommunikatsiya'ning yozma va og'zaki vositalardan samarali foydalana olish, turli ijtimoiy-rolli pedagogik pozitsiyalarda dialogik muloqot qila olish, turli xil odamlarning o'ziga xosligi, pozitsiyasi va fikrlarini qabul qila olish ko'nikmalari.

2-bosqichda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik topshiriqlarga "sho'ng'ish" jarayoni kechadi. Bu topshiriqlarni hal etish usullarni o'rganish orqali shakllantirilgan tayanch kompetensiyalar asosida bazaviy kompetensiyalar hosil qilinadi. Bu bosqichda bazaviy va tayanch kompetensiyalarning o'zaro singishi (integratsiyasi) ro'y beradi.

3-bosqichda-bazaviy kompetensiya'ning tayanch va maxsus kompetensiya bilan o'zaro chambarchas bog'liq integratsiyasi amalga oshiriladi. Shundan so'ng maxsus kompetensiyalarning rivojlanish jarayoni kecha boshlaydi.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini rivojlanish jarayoni ish tajribasi va o'quv topshiriqlarini bajarish, ijodiy ish va loyihalarning o'zaro uyg'unligi, pedagogik tadqiqotlar olib borish orqali kechadi. Yaxlit olganda bazaviy kompetensiyalar zamonaviy pedagogik faoliyat asosiy topshiriqlarni tushunish, tayanch kompetensiyalar esa shu topshiriqlarni yechish algoritimiga o'tishni nazarda tutadi. Maxsus kompetensiyalar esa alohida bir mutaxassisning pedagogik faoliyati misolida bazaviy va tayanch kompetensiyalarning qo'llanilishini ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetensiya ni shakllantirish zaruriyati va ijtimoiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jamiyatda o'zgarishlarning intensivligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi;
- ijtimoiy va kasbiy axborot oqimining uzluksiz o'sib borishi;
- shaxs talablari hamda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni modernizatsiyalash vazifalari;
- zamonaviy odam, mutaxassisning hayotiy faoliyati davomida turli topshiriqlarni hal etishga nisbatan faoliyk, mustaqillik, tayyorlilikgiga nisbatan talab ortganligi.

Pedagogik kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: - o'z bilimlарини изчил boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amalii faoliyatida samarali qo'llaydi.

"Novator pedagog", bizningcha, o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. Ularning ko'pchiligidagi g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or pedagog"dagи xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lif - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l-yo'rqliarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi". Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lishi uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyati talablariga, o'quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to'g'ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffofligini ifodalay olishi, xohish-istiklarni bildirishi, muloqotning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me'yorlaridan to'g'ri foydalanishi, muloqotda anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlanadirishi kabilarni kiritish mumkin. Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchialarning kasbiy kompetentligi ularning kasbiy va ijtimoiy faoliyatda faolligi, ta'lif sifati va samaradorligini namoyon qila bilishi, ularga ta'sir etuvchi tashqi omillar, erkin akademik muhit, ichzanuvchan, biliimga chanqoq ilm oluvchilar ham ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.:Питер, 2009. - 448с
2. Клочкива Г.М. Выделение компонентов и уровней графически-конструкторской компетентности студентов технологического образования // <https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=11988>.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва.: Знание, 1996. –С.308.
4. Муслимов Н.А. Теоретико-методические основы формирования профессионализма учителя профессионального образования. Автореф. дисс...док. пед. наук. -Т.:2007. –Б. 5.
5. Новейший словарь иностранных словиц выражений. -Мн.: Харвест. –М.: ООО "ИздательствоACT", 2001. – С.202.
6. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчига касбий-маданий муносабатларни шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. -2005 14бет
7. Уразова М.Б. Бўлажак касб таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фанл. бўйича докт. (ДСс) дисс.автореф. – Т.: 2015. –Б. 78.